

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(73 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(73 KB\)](#)

# DINIY-MA'RIFIY SOHA FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish hamda 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

## 1. Quyidagilar diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

“jaholatga qarshi ma'rifat” ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;

diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish.

## 2. Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tuzilmasida 15 ta shtat birligidan iborat **Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil markazi** (keyingi o'rinlarda Markaz deb yuritiladi) tashkil etilsin.

Markaz Din ishlari bo'yicha qo'mitaning axborot-tahliliy tuzilmasi hisoblanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasining O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida **O'zbekiston xalqaro islom akademiyasini tashkil etish** to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

O'zbekiston musulmonlari idorasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita muassisligidagi

respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

huquq va majburiyatlar bo'yicha qayta tashkil etilayotgan O'zbekiston islom akademiyasining hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universitetining huquqiy vorisi hisoblanadi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilariga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 14-bandida belgilangan imtiyozlar O'zbekiston xalqaro islom akademiyasiga ham tatbiq etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorni qabul qilsin.

**5. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo'lgan Malaka oshirish markazi tashkil etilishi inobatga olinsin.**

Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida imom-xatiblar, imom noiblari, diniy soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, oliy va o'rta ta'lim muassasalarining sohaga tegishli pedagog kadrlari qayta tayyorgarlikdan o'tadi va malaka oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallari faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorni qabul qilsin.

6. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi "Ziyo" media markazi mamlakatimizda dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ajdodlarimizning islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan boy diniy-ilmiiy merosini keng targ'ib qiluvchi, diniy-ma'rifiy hayotdagi yangiliklarni jamoatchilikka yetkazuvchi asosiy media tuzilma sifatida shakllantirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda "Ziyo" media markazi ishini samarali tashkil etish maqsadida uni aloqa vositalari, keng qamrovli Internet tarmog'i, zamonaviy telestudiya, televizion uskunalar jamlanmasi, komputer texnikalari, dasturiy ta'minot va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

"Ziyo" media markazi 2021-yilning 1-mayiga qadar belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha respublikada ishlab chiqarilmaydigan, zamonaviy telestudiya tashkil etish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, komputer va server texnikasi, texnika vositalari, shuningdek, boshqa moddiy-texnika resurslarini olib kirish uchun bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlar bundan mustasno) to'lashdan ozod etilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston

musulmonlari idorasi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining oliy diniy-ma'rifiy ta'lim muassasasi shaklidagi **Hadis ilmi maktabini tashkil etish** to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Qur'oni karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o'zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish Hadis ilmi maktabining asosiy vazifalari etib belgilangani inobatga olinsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorni qabul qilsin.

8. O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Muqaddas qadamjolarini saqlash va obod etish xayriya jamoat fondi Vasiylik kengashi mazkur fondni tugatish to'g'risida qaror qabul qilganligi, O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida **"Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etilganligi**, 2-ilovaga muvofiq ushbu jamoat fondining Vasiylik kengashi tarkibi ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**"Vaqf" xayriya jamoat fondining asosiy vazifalari** etib quyidagilar belgilanganligi qayd etilsin:

fuqarolarning diniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash;

masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining binolarini qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

tarixiy-me'moriy ahamiyatga ega ziyoratgohlarni saqlash, ta'mirlash, obodonlashtirish, ularning infratuzilmasini yanada rivojlantirish;

diniy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassislari va o'quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

masjidlar va ziyoratgohlar xodimlarini, xususan imom-xatiblar, imom noiblari, mutavallilar, muazzinlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

islom ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz, zamonamizning yetuk olim va ulamolari qalamiga mansub diniy-ma'rifiy asarlarni chop etish va aholiga yetkazishga ko'maklashish;

yurtimizdagi muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarining musulmon dunyosidagi nufuzini yanada oshirish, bu maskanlarga mahalliy va xorijiy fuqarolarning ziyoratlarini uyushtirish, ziyoratchilar uchun zarur sharoitlar yaratish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan birgalikda O'zbekiston musulmonlari idorasiga bir oy muddatda **"Vaqf" xayriya jamoat fondining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish**, fuqarolardan zakot, fitr va boshqa xayriya mablag'lari sifatida tushadigan mablag'lar Fondning alohida hisob raqamida to'planishi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan (shu jumladan, Internet tarmog'i orqali onlayn kuzatish imkoniyatini yaratgan) holda mablag'larning tushishi va sarflanishida to'liq shaffoflikni ta'minlash bo'yicha amaliy ko'mak bersin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Madaniyat vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan birgalikda uch oy muddatda respublikadagi barcha muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarini o'rganib chiqsin hamda ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 1-iyulga qadar o'rganish natijalari asosida muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni "Vaqf" xayriya jamoat fondiga foydalanish uchun ijaraga berish huquqi bilan birlashtirib berishni nazarda tutuvchi qarorni qabul qilsin.

Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar moddiy madaniy meros obyektlari hisoblanadi hamda ularning talab darajasida muhofaza qilinishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan davlat nazorati o'rnatiladi.

10. O'zbekiston musulmonlari idorasining "Vaqf" xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan ushbu idora tizimidagi diniy-ma'rifiy tashkilotlarda:

faoliyat yuritayotgan xodimlarga, shu jumladan imom-xatiblarga oylik ish haqi to'lash;

faoliyat yuritayotgan uy-joyga muhtoj xodimlarni xizmat uy-joylari bilan ta'minlash;

ko'p yillar davomida namunali faoliyat yuritayotgan, uy-joyga muhtoj imom-xatiblarga yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha qurilayotgan uy-joylarni sotib olib, tekinga berish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston musulmonlari idorasining buyurtmasiga asosan idora tizimidagi diniy-ma'rifiy tashkilotlar xodimlariga xizmat uy-joylari va ularga sotib olib berish uchun yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha qurilayotgan uy-joylarning ajratilishini ta'minlasin.

11. Belgilansinki, 2018-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida ishlovchi:

o'qituvchi, ilmiy xodim va mutaxassislariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlariga ko'ra tarif koeffitsiyentlari va bazaviy lavozim maoshlari 3 baravar (Markaz xodimlariga - 4 baravar) miqdorda qo'llaniladi;

pensionerlarga ularning ushbu tashkilotlardagi faoliyati yagona bo'lgan taqdirda pensiyalari to'liq to'lanadi.

Mazkur bandning uchinchi xatboshisi barcha diniy-ma'rifiy tashkilotlar xodimlariga tatbiq etilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Fanlar akademiyasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston musulmonlari idorasi va keng jamoatchilikning islom ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va boy ilmiy merosini chuqur o'rganish, mamlakatimiz dovruq'ini jahon miqyosida keng yoyish ishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan shaxslarni rag'batlantirish maqsadida "Imom Buxoriy" davlat mukofotini ta'xis etish haqidagi taklifi qo'llab-quvvatlansin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda mazkur davlat mukofotini ta'xis etish chora-tadbirlari to'g'risidagi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita Adliya vazirligi bilan birgalikda diniy-ma'rifiy sohada namunali faoliyat yuritayotgan, ijtimoiy-ma'naviy ishlarda alohida o'rnak ko'rsatayotgan soha vakillarini rag'batlantirish, shu jumladan davlat mukofotlariga taqdim etish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga kiritib borsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita:

bir hafta muddatda qo'mita faoliyatini takomillashtirish va uning yangilangan tuzilmasini tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini;

Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchilari R.T.Kamilov va R.S.Qosimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2018-yil 16-aprel

*Ko'rib chiqildi:*

 

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)